



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirdorlik faoliyati integratsiyasi kabilalar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmi



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'atlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 930,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 466,8 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm

Mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 613,5 mlrd. so'mga o'sdi va 1 826,3 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun:

o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 326,9 mlrd. so'mga o'sgan va 1 290,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yilning III diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4 473,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning III diskret choragiga nisbatan (3 636,9 mlrd. so'm) hajmi 836,6 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun:
2019 va 2018- yilning III diskret choraklar o'rtaсидаги farqi 20,9 mlrd. so'mni tashkil etган.



Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdarligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	11 930,5	103,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	325,2	133,5
Moliyaviy xizmatlar	1 713,0	135,9
Transport xizmatlari	2 847,8	100,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 728,1	101,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	400,1	81,3
Savdo xizmatlari	4 113,4	102,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	369,9	91
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	360,3	99
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	190,4	74,9
Ijara xizmatlari	360,4	101,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	224,2	91,2
Shaxsiy xizmatlar	296,7	93,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	422,6	98,5
Boshqa xizmatlar	306,5	78,1

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 34,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,9 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,9 %, shaxsiy xizmatlar - 2,5 %, boshqa xizmatlar hissasi 2,6 % ga to'g'ri keldi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (36,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (36,1 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (20,1 %), ta'llim sohasidagi xizmatlar (16,2 %), savdo xizmatlari (16,0 %), ijara xizmatlari (14,5 %), transport xizmatlari (11,6 %), shaxsiy xizmatlar (7,9 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2,8 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlарining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (18,8 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (11,8 % ga), boshqa xizmatlar (11,3 % ga), kompyuterni ta'mirlash xizmatlari (1,0 % ga) da pasayish kuzatildi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 34,5 % ni tashkil etib, bu 4 113,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylar savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 69,3 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 22,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylajidagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 713,0 mlrd. so'mni - tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 254,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiylajidagi ulushi 14,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 458,6 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 36,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni o'sish sur'ati 148,4 % ga yetgan.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi

- moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.


Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da

(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 7,7 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,0 % ni tashkil etadi.



Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 325,2 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 133,5 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.


Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Aloqa va axborotlashirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekomunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 92,8 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,2 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 1,1 % shuningdek, noshirlik xizmatlari - 3,7 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'llim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ta'lif sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 360,3 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,0 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 400,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 3,3 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyl ovqatlanish xizmatlari hajmi 53,3 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyl hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 86,9 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 13,1 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 190,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 74,9 % ni tashkil etdi.




Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlaniishi

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (114,7 %) va Chirchiq (101,1 %) shaharlarda, Parkent (101,3 %), Yuqori Chirchiq (101,1 %), Zangoita (101,0 %) va Bo'ka (101,0 %) va tumanlarda qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lмаган о'sish Angren (100,9 %) va Bekobod (100,8 %) shaharlarda, Oqqo'rg'on (100,9 %) va Bo'stonliq (100,8 %) tumanlarda qayd etildi.



Ko'rileyotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Nurafshon shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 542,2 mlrd. so'mga oshdi va 2 565,5 mlrd. so'mga yetdi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.
Toshkent viloyati	11 930,5	103,2	106,0
shaharlar :			
Nurafshon	2 565,5	114,7	125,3
Olmaliq	615,5	98,8	102,2
Angren	576,8	100,9	100,5
Bekobod	466,8	100,8	101,5
Ohangaron	294,2	100,5	101,5
Chirchiq	806,9	101,1	108,2
Yangiyo'l	382,1	100,4	101,4
tumanlar :			
Oqqo'rg'on	184,2	100,9	101,9
Ohangaron	205,0	100,4	100,2
Bekobod	242,7	100,5	102,4
Bo'stonliq	577,7	100,8	106,3
Bo'ka	238,4	101,0	103,0
Quyi Chirchiq	161,7	100,6	101,7
Zangiota	903,4	101,0	106,2
Yuqori Chirchiq	450,8	101,1	105,6
Qibray	1 142,4	98,7	104,3
Parkent	378,9	101,3	106,0
Piskent	171,7	100,4	102,0
O'rta Chirchiq	287,5	100,6	100,3
Chinoz	331,0	100,3	102,1
Yangiyo'l	380,2	100,2	100,5
Toshkent	567,1	100,7	101,0

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Qibray (1 142,4 mlrd. so'm), Zangiota (903,4 mlrd. so'm) tumanlarida va Chirchiq shahri (806,9 mlrd. so'm) da qayd etildi.

Ma'lumki, zamонавиј О'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumanlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 030,7 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi - 4 030,7 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 101,6 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 440,1 ming so'mga

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
soni -
27 004 birlikda

Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi -
61,4 %


O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'atlari -
119,5 %



Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 61,4 %, sanoat - 19,0 %, qurilish - 7,8 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi 11,8 % ga to'g'ri keldi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning yuqori ulushni (43,6 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 11,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi.



Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,0 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 22 757 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiylar tarkibida savdo xizmatlari – 39,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,2 %, tashish va saqlash - 5,7 %, axborot va aloqa - 2,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,7 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 38,3 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 4 247 taga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning soni 1 324 taga ko'paygan.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 32,1 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 860 taga ko'paydi va 11 766 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 16,1 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 445 taga ko'paydi va 3 214 tani tashkil etdi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirdorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirdorlik subyektlarining hissasi 81,0 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 80,2 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 956 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 22 619 tani tashkil etdi va o'sishi esa 28,1 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligining sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,4 % ga yetdi.

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 57,0 % ekvivalentida qayd etildi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Тел.: 71-202-86-72

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi